

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

60910100– “STOMATOLOGIYA” *(yo‘nalishlar bo‘yicha)*
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining
MALAKA TAVSIFNOMASI

Toshkent-2021

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil «16» avgust dagi ___ - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 317 -sonli buyrug'ining ___ ilovasi bilan tasdiqlangan



JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

MUNDARIJA

Umumiy qoidalar.....	5
1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan:	5
1.2. 60910100– Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka tavsifnomasi belgilaydi	7
1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi quyidagilar uchun mo'ljallangan:	7
1.4. Umumiy stomatolog shifokorining malaka tavsifnomasi ishlatiladi:.	7
1.5. Umumiy stomatolog shifokorining kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari	9
2 Umumiy stomatolog shifokori malaka tavsifnomasi.....	10
2.1. Umumiy stomatolog shifokori bilimi:.....	10
2.2. Umumiy stomatolog shifokorining ko'nikmalari:.....	10
2.3. Asosiy nazariy bilimlar	11
3 Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) umumiy stomatolog shifokorining o'rni	12
4 Sog'liqni saqlash birlamchi tizimida ko'rsatiladigan tibbiy yordam haj	12
4.1. Ko'rsatiladigan stomatologik yordam darajasiga ko'ra umumiy stomatolog shifokori tomonidan bajariladigan faoliyat quyidagi toifalarga bo'linadi:	12
4.2.1. Favqulodda yordam	13
4.2.2. Terapevtik stomatologiya	13
4.2.3. Ortopedik stomatologiya	15
4.2.4. Jarrohlik stomatologiyasi	17
5 Umumiy stomatolog shifokori egallashi shart bo'lgan amaliy ko'nikmalar ro'yxati.....	19
6 Umumiy stomatolog shifokorining munosabatlariga qo'yiladigan talablar	30
7 Uzluksiz kasbiy ta'lim va umumiy stomatolog shifokorining attestatsiyasi	31

1. UMUMIY QOIDALAR

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning keng ko'lamda, o'z vaqtida va yuqori sifatli bo'lishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini yaratishning eng muhim ustuvor vazifasidir. SHu maqsadda tashkil etilgan qishloq vrachlik punktlari, qishloq oilaviy poliklinikalari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli Markaziy poliklinikalar va tez tibbiy yordam stansiyalari ushbu vazifalarni hal etishga ko'maklashadi. Bugungi kunda, ayniqsa, qishloq joylarda aholi salomatligi holati uchun patronaj tizimini sifatli takomillashtirish talab etiladi, unda umumiy stomatolog shifokori bevosita ishtirok etishi kerak.

Umumiy stomatolog shifokorining ushbu malaka tavsifnomasi zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda asosiy hujjat hisoblanadi.

Malaka tavsifnomasi umumiy stomatolog shifokorini tayyorlashga va faoliyatiga qo'yilgan yagona va tizimlashtirilgan talablarni ta'minlaydi.

1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan:

Malaka tavsifi Umumiy stomatolog shifokorining tayyorgarligi va faoliyatiga birlashtirilgan, tizimlashtirilgan talablarni ta'minlaydi.

Bu malaka tavsifi Davlat me'yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli "Tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "SHoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4985-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "Tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko'rilayotgan profilaktika choralarining samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda
“O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish
bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5590-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martda
"O‘zbekiston Respublikasining birlamchi sog‘liqni saqlash muassasalari
faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-
2857-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va farmatsevtik ta‘lim
va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019 yil 6
mayda PQ-4310-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27
sentyabrda "Tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-
tadbirlari to‘g‘risida" gi 769-sonli qarori.

2018 yil 5 iyunda "Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va
ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol
ishtirokini ta‘minlash buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-
3775-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyulda
"Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik
osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-
tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-6035-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda
"YUqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-
quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari.
to‘g‘risidagi" PQ-4063 – sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 aprelda PQ-4666-
sonli "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy
rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari
to‘g‘risida" gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda
"Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi
mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan
islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-
6110-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021
yil 16 iyulda "Oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash
to‘g‘risida" gi 311-sonli buyrug‘i.

**1.2. 60910100– Stomatologiya (yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi
bo‘yicha malaka tavsifnomasi davlat me‘yoriy hujjati bo‘lib, quyidagilarni
belgilaydi:**

- mutaxassislik bo'yicha tayinlanishi va shifokor faoliyatining asosiy qoidalari va shartlari;
- umumiy stomatolog shifokori tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan kasbiy va ijtimoiy vazifalar, amaliy ko'nikmalar va ko'nikmalar tizimi ko'rinishidagi malaka talablari;
- umumiy stomatolog shifokori sertifikatiga qo'yiladigan talablar;
- umumiy stomatolog shifokori oliy tibbiy ta'lim muassasalarida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini birlashtirish, bu O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida umumiy stomatolog-shifokorining tayyorgarligi va faoliyati sifati uchun javobgarlikni kuchaytiradi;
- “qayta aloqa” mexanizmini amalga oshirish bo'yicha umumiy stomatolog shifokorining amaliy faoliyatini baholash mezonlari.

1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tizimi muassasalari (qishloq vrachlik punkti (QVP), qishloq oilaviy poliklinika (QOP), ko'p tarmoqli markaziy poliklinika (KTMP), tez tibbiy yordam stansiyalari);
- O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari;
- tibbiyot kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tibbiyot oliy ta'lim muassasalari;
- bazasida talabalar tahsil oladigan davolash-profilaktika muassasalari, respublika ilmiy-amaliy markazlari va ilmiy-tadqiqot institutlari;
- umumiy stomatolog shifokorining mehnatidan foydalanadigan vazirliklar, idoralar, korxonalar (muassasalar va tashkilotlar);
- tibbiyot oliy o'quv yurtlari va ularning filiallari, sog'liqni saqlash organlari (ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, tez tibbiy yordam bo'limlari va tibbiyot muassasalari bo'limlari);
- sog'liqni saqlash organlari;
- sog'liqni saqlash mahalliy organlari;
- tibbiy muassasalar;
- tibbiyot birlashmalari;
- tibbiy-stomatologik uyushmalar, boshqa jamoat, kasaba uyushmalari tashkilotlari va boshqalar.

1.4. Umumiy stomatolog shifokorining malaka tavsifnomasi ishlatiladi:

- ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni prognoz qilishda, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim va ixtisoslashtirishda;

– kasbiy faoliyatini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishni takomillashtirishda;

– bakalavriat bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha Davlat imtihon komissiyasining maqsad va vazifalarini belgilashda;

– oliy o'quv yurtlari va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda, tibbiy ta'lim muassasalarida tegishli fanlar bo'yicha o'quv rejalari, o'quv dasturlari va ishchi dasturlarining davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda;

– umumiy stomatolog shifokorining kasbiy faoliyatini baholash va monitoringini olib borishda;

Malaka tavsifnomasi, umumiy stomatolog shifokorlar tayyorlash uchun kafolatlangan kasbiy minimumni aks ettiruvchi davlat tomonidan tartibga solinadigan talablar bilan bir qatorda, mutaxassisning buyurtmachi tashkilotlarining o'ziga xos sharoitida, ma'lum bir tibbiyot oliy ta'lim muassasaning bitiruvchilarini tayyorlash darajasiga qo'yiladigan malaka talablarining mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarini o'z ichiga olishi mumkin

1.5. Umumiy stomatolog shifokorining kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart-sharoitlari

Umumiy stomatolog shifokori aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, shuningdek, kattalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha profilaktika, diagnostika va davolash tadbirlarini o'tkazish bo'yicha zarur nazariy bilim va asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali shifokordir.

Umumiy stomatolog shifokori o'z kasbiy faoliyatini quyidagi O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli ixtisoslashgan tuzilmalarida kattalar salomatligini muhofaza qilish sohasida amalga oshiradi:

– qishloq vrachlik punktlari, qishloq oilaviy poliklinikalari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli Markaziy poliklinikalar, tez tibbiy yordam stansiyalari;

– sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalar, yuqori tibbiy ma'lumotli mutaxassis lavozimlarining namunaviy nomenklaturalarida nazarda tutilgan tegishli lavozimlarda **60910010-“Stomatologiya” (yo'nalishlar bo'yicha)** yo'nalishi bo'yicha – umumiy stomatolog shifokori;

– sog'liqni saqlash organlari, oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlari, oliy tibbiy ma'lumotli mutaxassislar uchun normativ hujjatlarida belgilangan **60910100- Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)** yo'nalishi bo'yicha – umumiy stomatolog shifokori lavozimida ishlaydilar;

2. UMUMIY STOMATOLOG SHIFOKORIGA MALAKA TAVSIFNOMASI

2.1. Umumiy stomatolog shifokori bilimi:



– sog‘liqni saqlash, sog‘liqni saqlashni boshqarish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari asoslari, tibbiyot xodimlarining javobgarligi, ularning huquqlari va majburiyatlari; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari;

– stomatologik kasalliklari asosidagi umumbiologik va patologik jarayonlarning rivojlanishi va namoyon bo‘lishining sabablari va mexanizmlari;

– stomatologik kasalliklarining oldini olish, tashxislash, davolashning uslubiy asoslari, bemorlarni klinik tekshirish va reabilitatsiya qilish tamoyillari.

2.2. Umumiy stomatolog shifokorining ko‘nikmalari:

– stomatologiya sohasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklarini tashxislash, davolash va oldini olish shaklida ushbu malaka tavsifiga binoan amalga oshiriladigan turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlar, shu jumladan ommaviy qirg‘in markazlarida kasbiy ambulatoriya va shoshilinch tibbiy yordamni mustaqil ravishda amalga oshirish;

– buxgalteriya hisobini va tibbiy hisobotlarni yuritish (ambulatoriya kartasi, bemorning tibbiy tarixi va tibbiy yordamning boshqa statistik shakllari);

– davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini ularning asosiy statistik ko‘rsatkichlari, shu jumladan iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilish;

– og‘iz bo‘shlig‘ini profilaktik ko‘rigini o‘tkazish;

– tibbiyot bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish;

– qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasbiy ta‘lim olish.

– kasalliklarning oldini olish bo‘yicha sanitariya-ma‘rifiy ishlarni olib borish;

2.3. Asosiy nazariy bilimlar:

Umumiy stomatolog shifokori bilishi kerak:

– tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini;

– tibbiy-profilaktika fanlari asoslarini;

– klinik fanlar asoslarini;

– profilaktika ishlari tamoyillarini;

– shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish tamoyillarini;

– laboratoriya va instrumental tadqiqotlar uchun bemorlarni tayyorlashni;

– ratsional farmakoterapiya tamoyillarini;

– terapevtik, ortopedik, jarrohlik stomatologiya asoslarini;

– pedagogika, psixologiya, deontologiya va psixoterapiya masalalarini;

– huquqiy asoslarni;

– mintaqaviy ekologik patologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini;

- davlat qonunchiligining asoslarini, sog‘liqni saqlash bo‘yicha amaldagi siyosiy hujjatlarni;
- bemorlarni professional ko‘rish va tekshirishni;
- tekshirish rejasini tuzishni va klinik - laborator, rentgenologik va instrumental tekshirish usullarini izohlashni;
- xalqaro X kasalliklarning tasniflash talablariga muvofiq dastlabki va klinik tashxisni shakllantirishni;
- “dalillarga asoslangan tibbiyot” tamoyillariga muvofiq davolashni tayinlash;

3. AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH VA KASALLIKLARNING OLDINI OLIHDA (PROFILAK-TIKASIDA) UMUMIY STOMATOLOG SHIFOKORINING O‘RNI

3.1. Umumiy stomatolog shifokorining majburiyatlari:

- profilaktik;
- davolash va diagnostika;
- tashkiliy va uslubiy;

4. SOG‘LIQNI SAQLASH BIRLAMCHI TIZIMIDA KO‘RSATILADIGAN TIBBIY YORDAM HAJMI

4.1. Ko‘rsatiladigan stomatologik yordam darajasiga ko‘ra umumiy stomatolog shifokori tomonidan bajariladigan faoliyat quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1-toifa sog‘liqni saqlashning asosiy bo‘g‘inida mustaqil ravishda umumiy stomatolog shifokori tomonidan amalga oshiriladigan ish hajmini o‘z ichiga oladi.

2-toifada ekspertiza o‘tkazish, dastlabki tashxis qo‘yish va keyinchalik tuman, shahar va respublika bo‘ysunuvidagi stomatologik poliklinika mutaxassisiga yuborish talab etiladi.

3-toifada ixtisoslashtirilgan stomatologiya muassasalari shifokorlarining tavsiyalari bo‘yicha dinamik kuzatuvni amalga oshiradi.

4.2. Umumiy stomatolog shifokori tadbirlari amalga oshirilishi kerak bo‘lgan kasalliklar ro‘yxati:

4.2.1. Favqulodda yordam

Quyidagi hollarda tibbiy yordam keyinchalik favqulodda va shoshilinch tibbiy yordam tizimiga o‘tkaziladi:

- hushdan ketish;
- isterik reaksiyalar;
- olingan tishdan qon ketishi;



- anafilaktik shok;
- asfiksiya;
- kollaps;
- yuz-jag‘ sohasining qo‘yishi;
- yuz-jag‘ sohasining jarohatlari;
- yuz-jag‘ sohasining to‘qimasining jarohatlari;
- yuz-jag‘ sohasining yaralari va qo‘yishi;

Yuqorida aytib o‘tilgan shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatiladi, keyinchalik shoshilinch va shoshilinch tibbiy yordam tizimiga o‘tkaziladi.


4.2.2. Terapevtik stomatologiya:

1. Quyidagi manipulyasiya va kasalliklar bilan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan ishlar hajmi:

- og‘iz bo‘shlig‘ini sanatsiya qilish;
- tish kariesi va uning asoratlarini oldini olish;
- dog‘ bosqichidagi kariesda remineralizatsiya davolash;
- yuza, o‘rta va chuqur karieslarni davolash;
- o‘tkir va surunkali pulpitni davolash;
- tishning koronar qismi sinishini (pulpa zararlanishi bilan) davolash;
- o‘tkir periodontitlarda birinchi yordam ko‘rsatish;
- pulpar kelib chiqishga ega apikal periodontitni davolash;
- surunkali apikal periodontitni davolash;
- kataral gingivitni davolash;
- stomatitda og‘iz bo‘shlig‘ini chayish;
- tish karashlarini mexanik ravishda olib tashlash;
- tish karashlarini fizik yo‘l bilan olib tashlash;
- yumshoq tish karashlarini olib tashlash;
- sub‘ektiv tekshirish usullari;
- zondlash, tish perussiyasi;
- palpatsiya;
- periodontal cho‘ntaklarni aniqlash;
- qon ketish darajasini aniqlash;
- og‘iz gigienasi indekslarini aniqlash.

2. Kasalliklarga xos klinik va rentgenologik belgilarni aniqlash, dastlabki tashxis qo‘yish va quyidagi kasalliklarda mutaxassisga yo‘llanma berish:

- tishlarning yuqori sezuvchanligi;
- gipertrofik gingivit;
- atrofik gingivit;
- barcha og‘irlik darajadagi surunkali periodontitlar;



- Vensan o‘tkir yarali nekrotik stomatiti;
- kandidoz stomatit;
- surunkali takrorlanuvchi aftoz stomatit.

3. Ixtisoslashtirilgan stomatologiya muassasalari shifokorlari tavsiyasiga binoan amalga oshiriladigan ishlar hajmi va quyidagi kasalliklarda dinamik kuzatuv:

- xeylitning ekssudativ shakli;
- qora “tukli” tilga ishlov berish;
- og‘iz bo‘shlig‘i eroziyalari va yaralarini davolash;
- milk chetining eroziv-yarali yuzasiga ishlov berish;
- tishlarning yuqori sezuvchanligi;
- gipertrofik gingivit;
- atrofik gingivit;
- barcha og‘irlik darajasidagi surunkali umumiy periodontitlar;
- surunkali tarqalgan parodontoz;
- Vensan o‘tkir yarali nekrotik stomatiti;
- kandidoz stomatit;
- surunkali takrorlanuvchi aftoz stomatit.

4.2.3. Ortopedik stomatologiya

1. Mustaqil ravishda amalga oshiriladigan quyidagi muolajalar hajmi:

- kombinirlangan protezlar ostidagi tish tojlarini charxlash;
- tishning toj qismini shtiftli tuzilmalar bilan tiklash;
- parodontit va parodontozlarda tishlarni tanlab charxlashni amalga oshirish;
- parodontitda old tishlarning zamonaviy shinalash usullari;
- olinadigan protezlar va ortodontik davo tufayli paydo bo‘lgan tish toshlarini olib tashlash;
- klammer byugel protezlarini korreksiya qilish;
- olinadigan protezlar va ortodontik apparatlardan hosil bo‘ladigan stomatitlarni (mexanik, toksik, allergik) oldini olish;
- mum naqshlari bilan Markaziy okklyuziyani aniqlash;
- qisman echiladigan plastinkali protezning mumli kompozitsiyasini (sun‘iy tishlarni ishlab chiqish) o‘lchash.

2. Kasalliklarga xos bo‘lgan klinik-radiologik belgilarni aniqlash, dastlabki tashxisni qo‘yish va quyidagi hollarda mutaxassisga yo‘llanma berish:

- qisman olinadigan plastinkali tish protezlarini ishlab chiqish uchun;
- to‘liq olinadigan protezlarini ishlab chiqish uchun;
- klammer tizimli byugel protezlarini ishlab chiqish uchun;



- to'liq olinadigan protezlar uchun yumshoq taglik ishlab chiqarish uchun;
- tish qatorlarining ikkilamchi deformatsiyasini davolash;
- tishlarni patologik emirilishini davolash;
- chakka pastki jag' bo'g'imi kasalliklarini davolash;
- aloxida va tish guruxlari anomaliyasini (miqdori, xolati, erib chiqishi), davolash bo'yicha tashxislash va tavsiyalar;
- chakka pastki jag' bo'g'imi disfunktsiyasini davolash;
- tishlarning qisman yo'qotilishi natijasida yuzaga keladigan tish- jag' tizimini ikkilamchi shakl buzilishini davolash;
- chaynov mushaklarining disfunktsiyasini tashxislash;
- fiziologik va patologik tishlovni aniqlash;
- yuz skeletining tishlari va suyaklarining rentgenografiyasini talqin qilish (panoramik, 3D tomografiya, magnit-rezonans tomografiya);
- mikrobiologik tadqiqotlar talqini;
- tadqiqotning elektromiografik natijalarini talqin qilish;
- tishlar harakatlanish darajasini aniqlash;
- bemorning yuz tuzilishiga va tishlarning tabiiy rangiga qarab sun'iy tishlarni tanlash.

3. Ixtisoslashtirilgan stomatologiya muassasalari shifokorlari tavsiyasiga muvofiq amalga oshiriladigan ishlar hajmi va quyidagi kasalliklarda dinamik kuzatuv o'rnatish:

- tish qatorlarining ikkilamchi deformatsiyalarini davolash uchun tanlangan tishlarni silliqlash;
- chakka pastki jag' disfunktsiyalarini davolash uchun vaqtinchalik tish kappasini tayyorlash
- chakka pastki jag' disfunktsiyalarini davolash maksadida tish katorlarida dezokklyuziya utkazish –
- tish jag' tizimining ikkilamchi deformatsiyalarini davolash uchun olinadigan protezlar bilan tish qatoridagi nuqsonlarni tiklash;
- tish qattiq to'qimalarining patologik emirilmasligi uchun quyma qoplamalarni ishlab chiqarish;
- uchokli paradontitni davolash uchun vaqtinchalik shinalar ishlab chiqarish;
- ortopedik protez va shinalar yordamida chaynash mushaklarining disfunktsiyasini davolash bo'yicha tavsiyalar.

4.2.4. Jarrohlik stomatologiyasi

1. Kasalliklarda mustaqil ravishda amalga oshiriladigan ish xajmi muolajalar quyidagilar:

- yuqori va pastki jag'larda anesteziya o'tkazish
- olingan tish katagiga ishlov berish;
- alveolitda tish katagini qirish va nekroektomiya qilish;
- subperiostal abscessni ochish;

- peristotomiyadan keyin yuvish;
- yuqori va pastki jag'dagi alohida tish guruhlarini olib tashlash;
- kattalardagi yiringli periostit va osteomieliit ochilgandan keyin jarohatni yuvish;
- yondosh kasalliklari bo'lgan bemorlarda o'tkir yiringli periostit va osteomieliitdan keyingi yaralarni yuvish va qayta ishlov berish;
- gaymor bo'shlig'i perforatsion teshigini vaqtinchalik tampon yordamida yopishni amalga oshirish.

2. Kasalliklarga xos bo'lgan klinik-rentgenologik belgilarni aniqlash, dastlabki tashxisni qo'yish va mutaxassisga yo'llanma berish: hollatlari quyidagilar:

- pereimplantit;
- yuz-jag' sohasi odontogen osteomieliiti, asoratlangan abscess va flegmonalari;
- tishlar retensiyasi;
- so'lak bezlari kasalliklari;
- odontogen gaymorit;
- Tish olish vaqtida gaymor bo'shlig'i tubining teshilishi;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalari jaroxatlari;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalarining xavfsiz o'smalari;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalarining nuqsonlari va shakl buzilishlari;
- yuz-jag' sohasining tug'ma anomaliyalari;
- yuganchalarning (til va labdagi) birikish anomaliyalari);
- umumiy kasalliklar fonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidagi o'zgarishlar;
- yuz-jag' sohasining spetsifik yallig'lanish kasalliklari;
- yuz nervlarining kasalliklari;
- yuz suyaklar va tishlarning rentgenografiyasi (panoramm, 3D tomografiya, magnit-rezonans tomografiya);
- laboratoriya tekshiruvlarining talqini (PCR, qon testlari, gepatit testlari, OITS va boshqalar.);
- so'lak bezlarining sialografiyasi;
- ultratovush tekshiruvi natijalarini talqin qilish (ultratovush);
- tishlarni harakatlanish darajasini aniqlash;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalari jaroxatlari;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalarining xavfsiz o'smalari;
- yuz-jag' sohasi suyak va yumshoq to'qimalarining nuqsonlari va shakl buzilishlari;
- yuz-jag' sohasining tug'ma anomaliyalari
- umumiy kasalliklar fonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidagi o'zgarishlar
- yuz-jag' sohasining spetsifik yallig'lanish kasalliklari

3. Ixtisoslashtirilgan stomatologiya muassasalari shifokorlari tavsiyasiga muvofiq amalga oshiriladigan ishlar hajmi va quyidagi kasalliklarda dinamik kuzatuv o'rnatish:

- yuz-jag' sohasining odontogen osteomieliiti – flegmona kesilgandan keyin qayta bog'lam o'tkazish;
- so'lak bezlari kasalliklari – so'lak bezi kanallarini yuvish va kengaytirish;
- odontogen gaymorit– yuqori jag' bo'shliqlarini yuvish.

5. UMUMIY STOMATOLOG SHIFOKORI EGALLASHI SHART BO'LGAN AMALIY KO'NIKMALAR RO'YXATI

Umumiy stomatolog shifokori quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

1. Stomatologik qurilma bilan ishlash (yoqish, nakonechnik maxkamlash, nakonechnikka turli xildagi rotatsion qurilmalarni maxkamlash).
2. Stomatologik muolajalar uchun asbob uskunalar tanlash.
3. Og'iz daxlizi va og'iz bo'shlig'ini ko'rigi.
4. Klinik instrumental tekshiruv va turli shakldagi tish karieslarini aniqlash.
5. Stomatologik muolajalarda in'eksion va noin'eksion usullarda og'riqsizlantirish o'tkazish.
6. Periodont kasalliklarida o'tuv burmasini paypaslash.
7. Dog' bosqichidagi kariesda remineralizatsiyalovchi davo.
8. Blek bo'yicha karioz bo'shliqlarinin charxlash, davolovchi, ajratuvchi tagliklar va sementdan doimiy plombalar qo'yish.
9. I - V sinf karioz bo'shliqlarini fantomlarda charxlash.
10. Fantomda atipik karioz bo'shliqlarni charxlash
11. Fantomlarda sun'iy dentindan vaktincha plomba qo'yish.
12. Fantomlarda karioz bo'shliqqa medikamentoz ishlov berish.
13. Fantomlarda karioz bo'shliqni kuritish.
14. Fantomlarda ajratuvchi taglik qo'yish.
15. Fantomlarda davolovchi taglik qo'yish.
16. Doimiy plombalarga birlamchi pardozi berish.
17. Fantomlarda silikat sementlardan plomba qo'yish
18. Karioz bo'shliqni kompozitsion plomba ashyosi bilan plombalash.
19. Tishlarni restavratsiya qilishning asosiy bosqichlarini bajarish.
20. Fantomlarda doimiy plombani olib tashlash.
21. Stomatologik hujjatlarni to'ldirilish qoidasi
22. Og'iz bo'shlig'ini ko'zdan kechirish
23. Karioz dog'ni metilen ko'kining 2% li suvli eritmasi bilan bo'yash.
24. Dog' bosqichidagi kariesni davolashda remineralizatsiya terapiyasini o'tkazish.

25. Perkussiya o'tkazish
26. Og'iz bo'shlig'i to'qimalarini palpatsiyalash
27. Zondlashni o'tkazish.
28. O'tkir yuza kariesni charxlash yo'li bilan davolash
29. Kofferdam qo'yish
30. O'rta kariesni davolash
31. Termodiagnostika o'tkazish
32. Elektrododontodiagnostikani (eod) o'tkazish
33. O'tkir chuqur kariesni ikki qabulda davolash
34. Surunkali chuqur kariesni bir qatnovda davolash
35. Dog' bosqichidagi kariesni elektroforez usulida davolash.
36. Karioz kavakni nur bilan qotuvchi kompozit plomba ashyosi bilan restavratsiyalash.
37. Ponasimon nuqsonni fotopolimerizatsiyalovchi kompozit plomba yordamida restavratsiya qilish
38. Fissuralarni germetizatsiyasini o'tkazish.
39. Ambulator sharoitda tishlarni oqartirish usuli
40. ART-usulida plombalash texnikasini o'tkazish.
41. Pulpani olishda qo'llanuvchi asboblarni farqlash.
42. Ildiz kanalini kengaytirishda qo'llanuvchi qo'l asboblarni farqlash.
43. Ildiz kanalini kengaytirishda qo'llaniluvchi rotatsion asboblarni farqlash.
44. Ildiz kanalini plombalashda qo'llaniluvchi asboblarni farqlash.
45. Fantomlarda markaziy kurak tish bo'shlig'ini ochish.
46. Fantomlarda ën kurak tish bo'shlig'ini ochish.
47. Fantomlarda qoziq tish bo'shlig'ini ochish
48. Fantomlarda kichik oziq tish bo'shlig'ini ochish.
49. Fantomlarda katta oziq tish bo'shlig'ini ochish.
50. Fantomlarda ildiz kanali og'izchasini kengaytirish.
51. Fantomlarda ildiz kanallariga medikamentoz ishlov berish
52. Ildiz kanallari uzunligini ylchash
53. Kanalni standart usulda kengaytirish texnikasi
54. Ildiz kanalini apikal-koranal usulda kengaytirish
55. Ildiz kanalini koranal-apikal «Crown Down» usulda kengaytirish.
56. Ildiz kanalini kimyoviy usulda kengaytirish texnikasi
57. Fantomlarda ildiz kanaliga mexanik ishlov berish.
58. Ildiz kanallarini bir malham yordamida plombalash.
59. Ildiz kanallarini birlamchi qattiq ashyolar yordamida plombalash.
60. Ildiz kanallarini bir shtift yordamida plombalash
61. Lateral (yon) kondensatsiya usuli
62. Ildiz kanallariga shtiftlarni mustahkamlash
63. Ildiz kanallarini rezorsin - formalin pastasi bilan plombalash
64. Ytmas ildiz kanallarini mumifikatsiya qilish texnikasi

65. Ildiz kanalini elektroforezi
66. Elektrododontodiagnostikani (eod) o'tkazish
67. Boylam ichi (intraaligamentar) anesteziyasini o'tkazish
68. Pulpitni davolashning biologik usulini o'tkazish
69. Vital amputatsiya o'tkazish texnikasi
70. Vital ekstirpatsiya usulini o'tkazish texnikasi
71. Ildiz kanallari uzunligini o'lchash texnikasi.
72. Devital amputatsiya usulini o'tkazish texnikasi
73. Devital ekstirpatsiya usulini o'tkazish texnikasi
74. Ildiz kanalini «Step Back» usulida mexanik kengaytirish texnikasi
75. Kanalni standart usulda kengaytirish texnikasi
76. Periodontitli tishlarda pulpa chirindisini antiseptiklar ostida bosqichma – bosqich olib tashlash
77. Xar hil bosqichdagi o'tkir cho'qqili periodontitlarda birinchi yordam ko'rsatish
78. “Vazoparez” simptomini aniqlash
79. Surunkali periodontitlarni katnov bilan davolash
80. Periodontitli tishlarni davolashda dori vositalari “Yoks”, kaliy yodid bilan elektroforez o'tkazish texnikasi
81. Milk usti va osti tish toshlarini mexanik usul yordamida tozalash.
82. Tish toshlarini fizik usulda ultratovush apparati erdamida tozalash.
83. Parodont cho'ntak chuqurligini aniqlash.
84. YUmshoq tish karashini tozalash.
85. Milk qirg'og'idan nekrotik karashni olib tashlash.
86. Milk qirg'og'ini ishlov berishdan oldin mahalliy-og'riqsizlantirish.
87. Gipertrofik milk qirg'og'ini diatermokoagulyasiyalash.
88. Milkni uqalash
89. Parodontitlar uchun submukoz in'eksiya
90. In'eksion dori vositasini ko'tara olish (sezgirlik) ni aniqlash uchun o'tkaziladigan teri ichi sinamasi.
91. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga mahalliy applikatsion ishlov berish.
92. Dental rentgen tasvirini olish.
93. OBSHQ kimyoviy kuyishida birinchi yordam ko'rsatish.
94. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida nekroektomiya o'tkazish..
95. Diaskopiya (olma jelesi simptomi) sinamasini o'tkazish
96. Grina – Vermillion indeksini aniqlash (gigienik indeks).
97. Kandidozli stomatitga ishlov berish.
98. Ko'p shaklli ekssudativ eritemada zararlanish elementlariga tibbiy ishlov berish.
99. Surunkali kaytalanuvchi aftoz stomatitda mahalliy ishlov berish.
100. KPI (kompleks parodontal indeks) ni aniqlash.
101. Og'iz bo'shlig'i sanatsiyasida tishlarni o'tkir qirralarini charxlash.

102. Pospelov sinamasini aniklash.
103. KPO (karies intensivligini aniqlash) ni aniqlash.
104. Mak-Klyura — Oldricha sinamasini o'tkazish.
105. Fedorova-Volodkin bo'yicha gigienik indeksni aniqlash.
106. Glossalgiyani mahalliy davolash.
107. Nikolskiy sinamasini o'tqazish (A – va V -ko'rinishi.).
108. Qizil yassi temiratkida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga mahalliy ishlov berish.
109. Qizil yugurukda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga mahalliy ishlov berish.
110. Qora "sochli " tilni mahalliy davolash.
111. Simptomatik xeylitlarda jarohat elementlariga medikamentoz ishlov berish.
112. Lablarni surunkali yoriqlarini mahalliy davolash.
113. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida o'sma oldi kasalliklarni paypaslash.
114. Surtma-bosma olish..
115. Surtma-qirindi olish uslubi.
116. Yallig'langan o'choqda fotodinamik terapiya o'tkazish.
117. Elektrodontodiagnostika o'tkazish.
118. OBSHQda LDF-metriya o'tkazish uslubi.
119. Milk usti va osti tish toshlarini surunkali aftoz stomatitda mexanik usul yordamida tozalash.
120. SHtamplangan koplamaning tayyorlash.
121. Quyma qoplamani tayyorlash.
122. Qisman olib qo'yiluvchi protezni tayyorlash.
123. To'liq olib qo'yiluvchi protezni tayyorlash.
124. Bemorda okklyuziyagramma usulini o'tkazish
125. Ikki qavatli qolip olish usuli.
126. To'liq olib qo'yiluvchi protez uchun qolip olish.
127. Qisman olib qo'yiluvchi protez uchun qolip olish.
128. Quyma cho'girli o'zak konstruksiyasini bevosita usul bilan tayyorlash.
129. Sun'iy qoplamani qo'yib tekshirish usuli.
130. Ko'priksimon protezni sinchini o'lchash.
131. To'liq va qisman olib qo'yiluvchi protezlarni qayta to'g'irlash.
132. Prikus bolishchali mum asosini tayyorlash usuli.
133. Ezib tayyorlangan qoplamalarni tayyorlash.
134. Quyma ko'priksimon protezni mumli kompozitsiyasini tayyorlash.
135. Quyma o'zak kompozitsiyasini mumdan tayyorlash.
136. Diagnostik modelni tayyorlash.
137. Stomatologiyada noineksion og'riqsizlantirish.
138. Appikatsion og'riqsizlantirish o'tkazish.

139. Infiltratsion og'riqsizlantirishni bemorda bajarish.
140. Infraorbital og'riqsizlantirishni bemorda og'iz tashqari usulida bajarishni.
141. Infraorbital og'riqsizlantirishni bemorda og'iz ichi usulida bajarishni.
142. Palatinal og'riqsizlantirishni bemorda bajarish.
143. Tuberal og'riqsizlantirishni bemorda bajarish.
144. Insizival og'riqsizlantirishni bemorda bajarish.
145. Mandibulyar og'riqsizlantirishni bemorda palpatsiya yordamida bajarish.
146. Mandibulyar og'riqsizlantirishni bemorda apodaktal usulda bajarish.
147. Mandibulyar og'riqsizlantirishni bemorda og'iz tashqari usulda bajarish.
148. Torusal og'riqsizlantirishni fantomda bajarish.
149. Torusal og'riqsizlantirishni bemorda bajarish.
150. Engak nervini og'riqsizlantirishni og'izdan tashqari usulda bemorda bajarish.
151. Engak nervini og'riqsizlantirishni og'iz ichi usulida bemorda bajarish.
152. Omburlar bilan tish olish bosqichlari.
153. Yuqori jag'da alohida gurux tishlarini olish.
154. Pastki jag'da alohida gurux tishlarini olish.
155. Tish katagidan qonni to'xtatish.
156. Perekoronoritni davolash.
157. Alveolitni davolash.
158. Abssessni kesib ochish.
159. Tanglay absessini kesib ochish.
160. Yuz-jag' sohasi va teri qoplamidagi reionar limfa tugunlarini paypaslab tekshirish.
161. O'tkir yiringli periostitni davolash.
162. Jarohatga birlamchi jarrohlik ishlovi berish.
163. Teridagi choklarni olish..
164. Tigershtedt shinasini bukish va taqish.
165. Burundan qon ketishida oldi tamponada o'tkazish.
166. Yuqori jag' sinishlarida suyak bo'rtmalarini aniqlash.
167. Jag' sinishlarida Gippokrat bog'lamini qo'yish.
168. Oddiy bintli bog'lam.
169. Pastki jag' sinishlarida bosim belgisini aniqlash.
170. Tashqi uyqu arteriyasini barmoq bilan bosish.
171. Ayvi bo'yicha vaqtincha immobilizatsiya usuli.
172. Pastki jag'ni oldinga chiqishini to'g'rilash.
173. Bemorlarda parodont cho'ntagida ochik kyuretaj o'tkazish.

174. Til yuganchasi qisqa bo'lganda tilda o'tkaziladigan frenulektomiya.
175. Tapa lab yuganchasi qisqa bulganda frenulotomiya o'tkazish.
176. Yuz va og'iz bo'shlig'ida o'smalarni paypaslash.
177. Uchburchak laxtak bilan mahalliy plastika o'tkazish.
178. Yukori jag' alveolyar o'sigini frontal tishlar sohasini paypaslash.
179. Pastki jag'ni alveolyar o'sig'i buyicha qoziq tishlar atrofini paypaslash.
180. Bemorlarda dental implantatsiyadan oldin alveolyar o'sig'ining suyagi va shilliq qavatini qalinligini baholash.
181. Yassi shaklli implantatning o'rnatilishi .
182. Alveolyar o'siqdan ekzostozni olib tashlash.
183. Sitologik tekshiruv uchun punktat olish.
184. Gistologik tekshiruv uchun material olish.
185. Og'iz bo'shlig'i profilaktik ko'rigini o'tkazish.
186. Og'iz bo'shligi gigienik indeksini (GI) aniqlash.
187. Karies jadallik ko'rsatkichini aniqlash (KPU \pm kp)..
188. Karies tarqalish ko'rsatkichini aniqlash.
189. Parodont (RMA) ko'rsatkichini aniqlash.
190. Tishlarni ftorlaklar bilan qoplash.
191. Tishlar yuzasini applikasiya usulida remineralizatsiya qilish.
192. Tish fissuralarini plombalash.
193. Tishlar yuzasini kumushlash.
194. Karies kavagini charxlab shakllantirish.
195. Sut tishlari pulpasini amputatsiya qilish.
196. Engl bo'yicha tishlov turini aniqlash.
197. Izar bo'yicha yuz turlarini aniqlash.
198. Pon bo'yicha tish yoyi torayganlini aniqlash.
199. Korkxauz (Korkhaus) bo'yicha tish yoyi old qismining uzayganligi yoki qisqaligini aniqlash.
200. Miogimnastik mashqlarni bajarish.
201. Prognatik prikusdagi miomashqlarni o'tkazish.
202. Progenik prikusdagi miomashqlarni o'tkazish.
203. Til mushaklari uchun mashqlar o'tkazish.
204. Ochiq prikusdagi miomashqlar o'tkazish.
205. Individual bosh qalpoqchasi tayyorlash.
206. Engak osti sopqonini tayyorlash.
207. Tish qatorlarni to'g'ri tishloviga xalaqit beradigan qoziq va boshqa tishlarni do'mboqlarini tanlab charxlash.
208. Ortodontik-biologik separatsiyani o'tkazish.
209. Ortodontik moslamalar (xalqa, qoplamalar) ni tayanch tishlarda o'lchab ko'rish..
210. Ortodontik plastinkani tez qotuvchi plastmassa yordamida qayta tiklash.

211. Ortodontik davolanayotgan bemorlarda vestibulyar yoyli plastinkani aktivlash.
212. Ortodontik davolanayotgan b'morlarda vintli plastinkani aktivlash.
213. Ortodontik davolanayotgan bemorlarda itarib chiqaruvchi prujinali plastinkani aktivlash.
214. Ortodontik davolanayotgan bemorlarda qo'lsimon prujinali plastinkani aktivlash.
215. Tayanch tishlardan ortodontik xalqalarni echish va tishlarning qattiq to'qimalariga ishlov berish.
216. Tez qotuvchi plastmassa yordamida tishlov balandligini ko'tarish uchun ortodontik kappalar tayyorlash.
217. Bolalarda sun'iy qoplamalarni tayyorlash.
218. Bolalarda vaqtinchalik ko'priksimon qoplamalarni tayyorlash.
219. Bolalarda vaqtinchalik konsol qoplamalarni tayyorlash.
220. Bolalarda qisman olib qo'yiluvchi tish protezlarini tayyorlash.
221. Palatinal anesteziyani bajarish.
222. Mandibulyar anesteziyasi bajarish.
223. Og'iz ichi shilliq qavatida infiltratsion anesteziyani bajarish.
224. Hushdan ketishda birinchi yordam ko'rsatish.
225. Periostotomiya operatsiyasi bosqichlari.
226. Furunkulda jarrohlik amaliyotini o'tkazish.
227. Karbunkulda jarrohlik amaliyotini o'tkazish.
228. Quloq oldi so'lak bezi chiqaruv yo'lini yuvish.
229. Jag' osti sohasi flegmonasini operatsiya qilish.
230. Jag' til tarnovi abssessi ochish.
231. Anafilaktik shokda yordam kursatish.
232. Tigershtedt shinasini bukish va o'rnatish.
233. Shikastlangan tomonni aniqlash uchun pastki jag' antropometriyasini o'tkazish.
234. CHPJB harakatini aniqlash.
235. Oddiy bintli bog'lam qo'yish.
236. Jag' osti va buyin en sohalarida yumshoq to'qima o'smalarida limfa tugunlarni paypaslash.
237. Bolalarda xeyloplastika operatsiyasidan keyin teridagi choklarni olish.
238. Bemorlarni parvarishlash, pulsni aniqlash, nafas olish sonini sanash va arterial qon bosimni o'lchash.
239. Zamonaviy qo'l yuvish usuli.
240. Sterillangan xalatni kiyish.
241. Esmarx jgutini qo'yish texnikasi.
242. Qon guruhini aniqlash.
243. Yiringli bo'shliqlarni yoki gematomani punksiya qilish.
244. Yuza joylashgan yiringli bo'shliqlarni ochish texnikasi.

245. Murda topilgan yoki voqea sodir bo'lgan joyda murdani tashqi tekshirish, o'limni tasdiqlash, murda o'zgarishlariga qarab o'lim muddatini aniqlash.

246. Rentgenologik tekshiruv, sonografiya, kompyuter tomografiya, magnit rezonans tomografiya o'tkazish.

247. Ko'rish o'tkirligini aniqlash.

248. Yorug'likni sezish aniqlash.

249. Rang ajratishni aniqlash.

250. Periferik ko'rishni kontrol usulida tekshirish.

251. Binokulyar ko'rishni aniklash (Sokolov) usuli.

252. Yon tomondan yoritib ko'rish.

253. Ko'z ichki bosimini palpator aniqlash.

254. To'g'ri oftalmoskopiya.

255. Tomchilar tomizish va kon'yunktiva bo'shlig'iga malhamlar surtish.

256. Quloqni yuvish.

257. Laringoskopiya o'tkazish.

258. Oldingi rinoskopiya o'tkazish.

259. Oldingi tamponada o'tkazish.

260. Oltingugurt tiqinini yuvib chiqarish.

261. Orqa rinoskopiya o'tkazish.

262. Orqa tamponada o'tkazish.

263. Otoskopiya o'tkazish.

264. Tanglay murtaklarini yuvish.

265. Faringoskopiya o'tkazish.

266. Galvanizatsiya muolajasini o'tkazish.

267. Elektroforez muolajasini o'tkazish.

268. UVCH-terapiya muolajasini o'tkazish.

269. Diodinamoterapiya muolajasini o'tkazish.

270. Darsonvalizatsiya muolajasini o'tkazish.

271. Magnitoterapiya muolajasini o'tkazish.

272. Ultratovushterapiya muolajasini o'tkazish.

273. Yorug'lik bilan davolash (IQN - Solyuks lampasi) muolajasini o'tkazish.

274. Parafin-ozokerit applikatsiya muolajasini o'tkazish.

275. Biodozani aniqlash (UBN).

276. Psoriazda diagnostik uchlikni aniklash

277. Akantolitik (Tsank xujayralarini tekshirish)

278. Balser sinamasi

279. Yara yuzasidan rangsiz trepomemaga tekshirish uchun surtma olish uslubi.

280. Yurakni bilvosita massaj qilish texnikasi.

281. Yuqori nafas yo'llarida yot jism bo'lganda Geymlix usulini qo'llash.
282. Sezgi sohasini tekshirish usullari.
283. Uch shoxli nervni tekshirish usullari.
284. Yuz nervini tekshirish usullari.
285. Til yutqun va adashgan nervlarni tekshirish usullari.
286. Til osti nervni tekshirish usullari.
287. Barmoqdan qon olish texnikasi.
288. Qonning rezus omilini aniqlash.
289. Korotkov usuli bo'yicha arterial bosimni o'lchash.
290. Surtma tayyorlash.
291. Bakteriologik tekshirish uchun so'lak olish.
292. Stomatologik materiallarning o'lchamini shtangensirkulda o'lchash.
293. Stomatologik materiallarning o'lchamini mikrometrda o'lchash.
294. So'lakning yopishqoqligini viskozimetr VK-4 yordamida aniqlash.
295. Tibbiyot elektr apparatlari bilan ishlashda texnika havfsizligi qoidalarini o'rganish.
296. Teriga tugunli chok qo'yish.
297. Uzluksiz chok qo'yish.
298. Tirsak venasiga venepunksiya.
299. So'lak amilazasi faolligini aniqlash.
300. Bufer sistemalarning va so'lakning rNini aniqlash.
301. Word dasturida ishlash. Matn, jadvallar, diagrammalar yaratish, ular ustida ishlash, formulalar yozish va hujjatni chop etishga tayyorlash.
302. Excel dasturi. Ma'lumotlar kiritish, yacheykalar, listlar ustida ishlash, formulalar kiritish va yacheykalarni formatlash.
303. Statistik qayta ishlash. Styudent mezoni, korrelyasiya koeffitsientini hisoblash. Diagramma yaratish.
304. Slaydlar yaratish va prezentatsiyaga tayyorlash.
305. Elektron pochtaga (e-mail) ega bo'lish va undan foydalanish.

6. UMUMIY STOMATOLOG SHIFOKORINING MUNOSABATLARIGA QO'YILGAN TALABLAR

Bemorlarga nisbatan **umumiy stomatolog shifokori** tomonidan ko'rsatiladigan munosabat:

- shifokor deontologiyasi;
- tibbiy maxfiylikka rioya qilish;
- bemorga va uning oilasiga ma'lumot berish va turmush tarzini o'zgartirish bo'yicha maslahatlar berish;
- surunkali bemorlarning dinamik monitoringi;
- erta tashxis qo'yish va xavf omillarini aniqlash;
- xodimlar bilan kollegial munosabatlarni o'rnatish;
- jamoa bilan ishlash;

- mehnatni tashkillashtirish;
- boshqa muassasa xodimlari bilan hamkorlik qilish;
- maslahatchilarni jalb qilish;
- shifokor malakasini oshirish;
- diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish;
- hujjat va hisobotlarni malakali yuritish;
- uzluksiz kasbiy ta’lim;
- kompyuterda ishlash, internetga kirish, chet tilini bilish;
- ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalar va davolash-profilaktika muassasalarining bo‘limlarida menejment vaqtini boshqarish va ishlarni tashkil etish.

7. UZLUKSIZ KASBIY TA’LIM VA UMUMIY STOMATOLOG SHIFOKORINING ATTESTATSIYASI

Umumiy stomatolog shifokor doimiy ravishda o‘z-o‘zini o‘qitish orqali kasbiy bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi kerak. SHifokorlar o‘qishni tugatgandan keyingi dastlabki uch yillik ish davomida belgilangan tartibda vrachlar malakasini oshirishdan keyingi tibbiy ta’lim muassasalarida qayta o‘qitilishi va malakasini oshirishlari va ish joylarida zarur ko‘rsatmalariga rioya qilishlari kerak.

Umumiy stomatolog shifokori tuman sog‘liqni saqlash boshqarmalari, viloyat miqyosida, respublika miqyosida, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan qisqa muddatli o‘quv kurslari va seminarlarida qatnashishi kerak.

Har 5 yilda bolalar jarroh stomatolog shifokori ushbu muassasada malakasini tasdiqlash uchun kasbiy sertifikatlashdan o‘tishi kerak. Professional attestatsiya imtihonini muvaffaqiyatli topshirish asosida attestatsiya komissiyasi shifokor darajasining kasbiy daraja va mahoratning tegishli mezonlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi.

Malaka tavsifnomasi tuzilishida quyidagi hujjatlar bilan ishlangan:

1. O‘tgan yillarning malaka tavsifnomalari.
2. Xalqaro X kasalliklarning tasniflash ma’lumotlari.
3. O‘zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarning stomatologiya sohasidagi olimlarning faoliyati.
4. JSST / YUNISEF materiallari.
5. Bir qator Internet saytlari materiallari.
6. Statistik hisobot shakllari.
7. Jamoat salomatligi bo‘yicha qonunlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar.
8. Oliy tibbiy ta’limning davlat ta’lim standarti.
9. Tibbiyot bakalavrlarining malaka xususiyatlari.